

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH (DSc)**

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

ERMIRZAYEV ABBOS VAXOBJONOVICH

**BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING SOTSIOLINGVISTIK
KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR VOSITASIDA
TAKOMILLASHTIRISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора педагогических наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc) in Pedagogical Sciences

Ermirzayev Abbos Vaxobjonovich

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini autentik materiallar vositasida takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti 3

Ermirzayev Abbos Vaxobjonovich

The theory and practice of improving future English language teachers’ sociolinguistic competence through authentic materials 37

Эрмирзаев Аббос Вахобжонович

Теория и практика совершенствования социолингвистической компетенции будущих преподавателей английского языка с помощью аутентичных материалов..... 69

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 74

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH (DSc)**

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

ERMIRZAYEV ABBOS VAXOBJONOVICH

**BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING SOTSIOLINGVISTIK
KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR VOSITASIDA
TAKOMILLASHTIRISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Ped 1098 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy Kengashning namsifl.uz veb-sahifasi hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portal (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Misirov Sohibjon Abdupattayevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Kushiyeva Nodira Xabibjonovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Asqarova O'g'ulxon Mamashakirovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Muminova Dilafro'z Akbaraliyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "20" oktyabr soat 15⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu MFY, Yoshlik ko'chasi 100a-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz.

Dissertatsiya bilan Namangan davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (105 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu MFY, Yoshlik ko'chasi 100a-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10" oktyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil "10" oktyabr da 51 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.T.Dosbayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

I.I.Umrzaqov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M.Yakubbayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda dunyo xalqlarining ijtimoiy, maishiy va madaniy hayotini lingvistik qiyoslash, interpretatsion tahlil usuli asosida o'rganish masalalarini samarali hal etish, demokratik jamiyat qurishda xorijiy tillarni mukammal darajada biladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashning amaliy ahamiyati beqiyosdir. Umumevropa CEFR (Common European Framework of Reference for Language) malaka talablari asosida oliy ta'lim mazmuni va sifatini xalqaro darajaga ko'tarish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish orqali bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirish zarurati alohida dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda.

Dunyoda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining til va madaniyatni integratsiyalashgan holda o'rganish qobiliyatini rivojlantirish, tilni ijtimoiy va madaniy kontekstlarga mos holda qo'llay olish tayyorgarligini oshirish, ularning sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirish darajasini aniqlash, o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'nalishidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, loyihalashtirish, ingliz tilida so'zlarni samarali va muayyan maqsadga erishish uchun qanday ishlatish, tilni ijtimoiy kontekstda to'g'ri va samarali ishlatish qobiliyati suhbatdoshning so'zlarining maqsadini va niyatini to'g'ri tushunish, til bilish texnikasini chuqur egallash kabi indikatorlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tajribalarni o'rganish, zamon talablariga mos keladigan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish, har bir shaxsning intellektual va psixologik salohiyatini namoyon etish, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini ya'ni tilni ijtimoiy kontekstda to'g'ri va samarali ishlatish bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek: "Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim"¹. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tilni muayyan vaziyatga mos ravishda qo'llay olish tayyorgarligini oshirishda autentik materiallarni o'rgatishga doir vazifalarni ishlab chiqishga zamonaviy tarzda innovatsion yondashuv samaradorligini oshirish bugunning dolzarb muammolaridan biridir.

Oliy ta'lim tendensiyasining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021 yil 6 mayda chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqidan.

yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi", "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi qaror va farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni ta'minlashga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Chet tillarni o'qitish jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari o'z vatani va tili o'rganilayotgan mamalakat madaniyati, urf-odati, an'alarini qiyoslagan holda muloqot qila olish, o'zaro tushunishni mustahkamlash hamda madaniyatlararo farqlarni anglash va qabul qilish ya'ni sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishga oid ilmiy ishlanma va tadqiqotlar xorijiy yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilgan, jumladan: Indiana Universiteti, Minnesota Universtiteti (AQSH), Cambridge universiteti, Durham universiteti (Buyuk Britaniya), Toronto Universiteti, Britaniya-Kolumbiya Universiteti (Kanada), Lund Universiteti (Shvetsiya), Waseda (Yaponiya), Melbourne Universiteti (Avstraliya), Berlin universitetlari (Germaniya)da olib borilmoqda.

Sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirish bo'yicha jahonda qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, quyidagi ilmiy natijalar olingan: autentik materiallar orqali til o'rganishda madaniy tafovutlarni o'rgatilgan. Task-based learning (vazifaga asoslangan ta'lim) orqali talabalarning sotsiolingvistik moslashuvchanligini oshirilgan. EFL o'qituvchilarini madaniyatlararo kommunikatsiyaga tayyorlanganligi ilmiy asoslangan. Minnesota Universtiteti (AQSH); Til va madaniyat integratsiyasi, ko'p tillilik va transkultural o'rganish g'oyasini ilgari surgan. U talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini real, ijtimoiy vaziyatlarda rivojlantirish uchun autentik kontekstlarda til ishlatishni yoqlangan. Til xilma-xilligi, dialektlar, sotsiolingvistik tafovutlarni o'rgatishda autentik matnlar, ayniqsa reklama, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi tilni qo'llash zarurligini asoslangan. Berlin universitetlari (Germaniya); Ilmiy va amaliy natijalar sifatida talabalar so'zlashuvda xatoliklar sonini kamaytirgan, ayniqsa madaniyatga bog'liq kommunikativ xatolar kamaygan. O'qituvchilar madaniyatlararo o'rgatish yondashuvini guruhga muvaffaqiyatli joriy qilgan. O'quv dasturlarida video asosidagi tahlil, autentik suhbatlar va pragmatik feedback tizimi ishlab chiqilgan. (Waseda Universiteti); CLIL orqali talabalar ijtimoiy rollar, madaniy kontekst va til registrlari bo'yicha

chuqurroq bilim olganligi, Cambridge yondashuvi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini ko'p madaniyatli auditoriyalarda dars o'ta oladigan, sotsiologik sezgir va pragmatik jihatdan moslashuvchan mutaxassislar etib tayyorlaganligi ilmiy asoslangan. (Cambridge universiteti); O'qituvchilar real vaziyatlarda "cultural sensitivity" (madaniy sezgirlik) bilan yondashishni o'rgatilishi, "English Only" emas, balki kontekstual moslashuvga asoslangan til qo'llanilishi, har xil kelib chiqishdagi talabalar uchun til registrlari (masalan, professional, akademik, kundalik) farqlab nutqiy vaziyatda foydalana olishi masalalari ham o'rganilgan. (Melbourne Universiteti)

Dunyoda sotsiologik kompetensiyasini takomillashtirishga doir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda: sotsiologik kompetensiyasini rivojlantirishning metodologik asoslarni takomillashtirish; lingvomadaniy ta'limda innovatsion usullarni ishlab chiqish va qo'llash; sotsiologik kompetensiyasini takomillashtirishning samarali metod va vositalarini ishlab chiqish; talabalarda sotsiologik kompetensiyasini takomillashtirish uchun autentik materiallar va interaktiv vositalardan foydalanish; sotsiologik kompetensiyasini takomillashtirish uchun o'quv materiallari va pedagogik strategiyalarni oldindan rejalashtirish; til va madaniyatni hisobga olgan holda, sotsiologik kompetensiyasiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish orqali takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek pedagog-olimlari J.Jalolov, L.Ahmedova, G.Bakiyeva, G.Mahkamova, T.Sattarov, K.Risqulova, S.Ziyayeva, F.Rashidova, S.Saydaliyev, S.Misirov, M.Yakubbayev, D.Isroilova, Z.Abdujabborova, B.Kulmatov, G.Tadjibayev, D.Sarimsokova va M.Ro'zmetovalar tomonidan mazkur masala bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan².

² Jalolov J.J. Chet tilni o'qitish metodikasi. O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T- 2012. – 431 b.; Ahmedova L.T. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. –Т.: Фан ва технология. -2009.; Бакиева Г.Х. Преодоление звуковой интерференции при обучении русскому произношению студентов-узбеков (на материале консанантизма).: автореф. Дисс. канд.пед.наук. –Тошкент: –1987. –21 с; Махкамова Г. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов факультетов английского языка. – Ташкент: Фан, 2010. – 208 с.; Сатторов Т.Қ. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. –Т.– ТДЮИ, 2003.– 191 б.; Рискулова К.Ж. Бўлажак инглиз тили ўқитувчилари социолингвистик компетентлигини шакллантириш тизими: Пед. фанл. докт. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 62 б. 64.; Зияева С.А. Совершенствование социолингвистической компетенции студентов языковых высших образовательных учреждений при обучении немецкому языку: Пед. фанл. докт. ...дисс. – Тошкент, 2020. . – 28 б; Рашидова Ф.М. Совершенствование концептуально-методических основ внедрения CEFR в систему непрерывного образования Узбекистана (на примере английского языка). Дисс. ... док. пед. наук. – Т.: 2017. – 309 с.; Сайдалиев С. С. Чет тил ўқитиш методикасидан очерклар. –Наманган: НамДУ, 2000. –210 б; Исроилова Д.М. Профессионально ориентированное обучение студентов английскому языку с учётом межпредметных связей в нефилологических вузах (на примере технологического факультета) : Дис...канд. пед. наук. –Т., 2020. – 144с.; Misirov S.A. Ingliz tili mashg'ulotlarida pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti Diss. ... dok. ped. nauk. – N.: 2024. – 184 s.; Yakubbayev M.M. Nemis tilini o'qitish jarayonida talabalarda lingvomadaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasi. Diss. ... dok. ped. nauk. – N.: 2024. – 144 s.; 16. Абдужаббарова З.Р. Касб-хунар коллежлари ўқувчиларига инглиз тилида қўшимча матнлар ўқитиш технологияси Пед. фан. номз. ... дис. - Тошкент: ТДПУ, 2007. Б 84; Kulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish. Avtoref. dis. ... ped. fan. dok. – Т.: 2018. – 21 b.; Тажибаев Ғ.Ш. Бошланғич синф ўқувчиларига чет тил ўқитишда коммуникатив ёндашув. пед.фан.бўйича фал.д-ри (PhD).... Дисс. – Т., 2019. Б-10. Саримсокова Д.М. Мустақил таълим жараёнида талабаларнинг

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) olimlari Ye.Passov, M.Seliverstova, N.Arshinova, T.Gustomyasova, I.Zimnya, N.Belenyuk, O.Xalupo, V.Zaxarova, L.Zueva, L.Krisin, Ye.Nechaeva, L.Pavlova, N.Suxova, E.Shevarshinova, V.Belikov, N.Dagbaeva, S.Dortman, F.Sharkovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida chet tilda kommunikativ kompetensiya va uning muhim tarkibiy qismi hisoblangan sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirishning o'ziga xos metodik jihatlari tadqiq qilingan³.

Xorijiy davlatlarda chet til o'qitishda til va madaniyat muammolari, til o'rganishda ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish, chet tilda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda sotsiolingvistik kompetensiyaning o'rni va ahamiyati masalalari M.Kanale, E.Kohen, A.Rays, M.Bayram, B.Dodj, S.Savignon, F.Delmare, J.Alderson, H.Viddovsonlar tomonidan o'rganilgan⁴.

инглиз тилида социолингвистик компетенциясини ривожлантириш технологияси пед.фан.бўйича фал.д-ри (PhD)... Дисс. – Н., 2022. Б-19; Рuzметова М.Ш. Ўқувчиларга узлуксиз инглиз тилини ўргатишда лингвистик компетенциянинг педагогик асослари // Узлуксиз таълим тизимида ҳамкорлик педагогикаси. Халқаро конф-я. 2014.–Т.: –Б. 238-240.; -176 с.

³ Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. 2-е изд. –М.: Просвещение, 1991. –223 с.; Селиверстова М. В. Формирование управленческих компетенций учителя в условиях развития современного образования: Дис. канд. пед.наук. -Ижевск, 2011. –212с.; Аршинова Н.И. Формирование иноязычной лингвистической компетенции студентов вуза с применением средств компьютерных технологий: английский язык как вторая специальность: Дис. канд. пед.наук. - Петрозаводск, 2007. - 189 с.;Густомясова Т.И.Методика формирования социолингвистической компетенциистудентовна материале E-mail-проектов: неязыковой вуз, английский язык: Дис. ... канд. пед. наук. - Волгоград, 2010. - 217 с.; Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно- целевая основа компетентностного подхода в образовании. –М.: Исслед.центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. -38с.; Беленюк Н.А. Формирование социолингвистической компетенции студентов младших курсов технического вуза в процессе обучения устному общению: английский язык, базовый курс: Дис. канд. пед.наук. -Томск, 2007. - 170 с.; Халупо О.И. Формирование коммуникативной культуры у студентовтехническоговузапри изучении иностранных языков.: Дис.канд.пед.наук. - Челябинск, 2002. - 144 с.; Захарова В.И. Социолингвистические особенности преподавания в институтах повышения квалификации государственных служащих по проблеме взаимодействия власти и общества. Выступление на Международной конференции «Наука и современное образование», проходившей 14-15 ноября 2014 года в Республике Сербия (Университет в Ниш).;Зуева Л.Ф. Формирование социолингвистической компетенции студентов вузов физической культуры.: Дис. ...канд.пед.наук. -Малаховка, 2002. -180 с.; Крысин Л.П. Современный русский язык. Лексическая семантика. Лексикология. Фразеология. Лексикография. -М.: Издательский центр «Академия», 2007. -240 с.;Нечаева Е.С. Методика формированиясоциолингвистической компетенциистудентовязыковых факультетов педагогических вузов на основе социофонетического компонента: на материале английского языка: Диссертация кандидата педагогических наук: -Москва, 2010. - 216 с.; Павлова Л. П. Исследование влияния игровой учебной деятельности на формирование межкультурной компетенциистудентоввуза: На материале иност 189. Шеваршинова, Е.И. Применение медиатекстов с целью взаимосвязанного обучения иностранному языку и межкультурному общению студентов языковых факультетов // Е.И Шеваршинова // Наука и школа. - 2015 -№ 1 –с. 175-181.ранного языка: Дис. ... канд.пед. наук: -Ставрополь, 2004.; Сухова Н.А. Формирование культурно-страноведческой компетенции на основе аутентичных материалов в процессе обучения устной речистудентов педагогического вуза: Второй курс, немецкий язык: Дис. ...канд.пед.наук. - Санкт-Петербург, 2002. - 244 с.;Шеваршинова, Е.И. Применение медиатекстов с целью взаимосвязанного обучения иностранному языку и межкультурному общению студентов языковых факультетов // Е.И Шеваршинова // Наука и школа. - 2015 -№ 1 –с. 175-181.;Дagбаева Н.Ж. Овчинникова М.Ф. Принципы формирования социолингвистикой компетенции на начальном этапе языкового вуза// Вектор науки ТГУ №1.(8). 2012. Стр. 103-105.; Беликов В.И., Крысин Л.П. Социолингвистика: Учебник для вузов. - Москва, Рос.гос. гуманит. университет., 2001 год Стр 91.;Дортман, С.Р. Обучение лингвокультурологической компетенции учащихся средних профессиональных образовательных учреждений (на материале немецкоязычных медиатекстов): дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02 / Дортман С. Р. – Пятигорск, 2012. – 180с.;Шарков Ф.И. Основы теории коммуникация. Москва.2001. С.24- “Информация, управления, бизнес” сайтдан олинган.;

⁴ Canale M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing / M. Canale, M. Swain // Applied Linguistics. - 1980.- №1.-P. 11-47.; Cohen A. D. The production of Speech Acts by EFL learners / A. D. Cohen, E. Olshtain // TESOL Quarterly, 1993. - № 27 (1). - P. 33 - 56.; Rice A., Stempleski S.

Biroq globallashuv sharoiti talablari asosida xalqaro ta'lim standartlariga mos ravishda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiologik kompetensiyasini autentik matnlarni o'qish vositasida takomillashtirish tizimi monografik aspektida tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi: Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat chet tillari institutining "Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va chet tillar o'qitishning dolzarb muammolari" ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiologik kompetensiyasini autentik matnlarni o'qishni o'rgatish vositasida takomillashtirish metodikasiga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, sotsiologik kompetensiya" tushunchalarining mazmun-mohiyatini asoslash, autentik matnlarni tanlashga qo'yiladigan metodik talablarni aniqlash;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiologik kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan tilga oid qiyinchilik va xatolar tipologiyasini aniqlash;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiologik kompetensiyasini takomillashtirishga xizmat qiladigan inglizcha mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiologik kompetensiyasini autentik matnlarni o'qishni o'rgatishning innovatsion texnologiyalari asosida takomillashtirish;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiologik kompetensiyasini takomillashtirish darajasini aniqlovchi indikatorlarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiologik kompetensiyasini autentik matnlarni o'qishni o'rgatish vositasida takomillashtirish jarayonlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiologik kompetensiyasini autentik matnlarni o'qishni o'rgatish vositasida takomillashtirishning mazmuni, shakl, usul va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: psixologik-pedagogik tahlil, tadqiqot muammolari bo'yicha adabiyotlar tahlili, o'quv-uslubiy, madaniy, lingvistik; me'yoriy hujjatlarni o'rganish, an'anaviy va innovatsion tajribalarni o'rganish hamda tizimlashtirish; pedagogik loyihalashtirish; pedagogik modellashtirish; empirik; anketa; suhbat; test usuli; talabalarni o'quv va ijodiy faoliyati mahsulining tahlili; natijalarni grafik tasvirlash; tajriba-sinov; diagnostik va matematik-statistik tahlil.

Explorations. An Interactive Approach to Reading. Boston Heinle, Heinle Publishers, 1999, p.68.; Byram, M. Introduction. Intercultural competence| M.Byram| edited by M.Byram/- Council of Europe.-2006.-p. 5-13.;Dodge B. WebQuestTaskonomy: A Taxonomy of Tasks. 1999.;Savignon S.J. Interpreting communicative language teaching. Context and concerns in teacher education / S. J. Savignon. - Yale University Press; New Haven & London, 2002. - 243 p.; Delamare F. Winterton, J What is Competence? – Human Resource Development International, Vol.8 No.1, March 2005, P. 27-46.; Alderson, J.C. (2000) Assessing Reading Cambridge, C.U.P.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“kompetensiya”, “kommunikativ kompetensiya”, “sotsiolingvistik kompetensiya” tushunchalarining tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik va lingvodidaktika sohalaridagi mazmun-mohiyati ilmiy-metodik jihatdan asoslanib, autentik matnlarni tanlashga qo‘yiladigan mazmuniy moslik (Content appropriateness), tilda real kontekstga moslik (authenticity of language use), til darajasiga moslik (language level adequacy), hajmi va strukturaviy soddaligi (length and structure suitability) metodik talablar o‘zbek tili va o‘rganilayotgan chet tilning madaniy (cultural), sotsiolingvistik (sociolinguistic), nutqiy (speech) me‘yorlarini qiyoslash tamoyili asosida aniqlangan;

til materialining sotsiolingvistik xususiyatlari (sociolinguistic features), madaniyatlararo tafovutlar (cross-cultural differences), kontekstual moslik (contextual appropriateness) darajasi inobatga olgan holda differensial yondashuv asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida uchraydigan leksik, grammatik va fonetik qiyinchiliklar hamda xatolar tipologiyasi aniqlangan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini autentik matnlarni o‘qishni o‘rgatish vositasida takomillashtirish bo‘yicha inglizcha mashq va topshiriqlar tizimi tilning akkumulyativ (accumulative), identifikatsion (identificatory), kommunikativ (communicative), apellyativ (appellative) va kognitiv (cognitive) funksiyalaridan foydalanish orqali ishlab chiqilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyani tabiiylik (naturalness), kontekstlilik (contextuality), murakkablik (complexity), foydalilik (usefulness) xususiyatlariga ega bo‘lgan podkast transkriptlari, blog postlari, gazeta va jurnal maqolalari kabi autentik matnlarni o‘qishni o‘rgatishning WebQuest, Podcast-based Learning, Collaborative Reading innovatsion texnologiyalari asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirish darajasini belgilovchi indikatorlar davlat ta‘lim standartlari va umumevropa (CEFR) talablari hamda kognitiv (bilim), operatsional (amaliy ko‘nikma), va affektiv (shaxsiy-munosabatga oid) komponentlarni qamrab olgan sotsiolingvistik kompetensiyaning integrativ modeli asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirish mezonlari va ko‘rsatkichlari aniqlashtirilgan;

ingliz tilini o‘qitish jarayonida “kompetensiya”, “kompetentlik” va “sotsiolingvistik kompetensiya” kabi tushunchalarni takomillashtirish muammosiga uslubiy yondashuvning mualliflik talqini taqdim etilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishga doir autentik matnlar (jumladan, jurnal, blog post va ijtimoiy tarmoqlardagi matnlar) asosida o‘quv materiallari tizimlashtirilgan;

“Til aspektlari amaliyoti” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga ingliz tilini o'qitish jarayonida sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishning o'quv-uslubiy ta'minoti yaratilgan.

Tadqiqot natijalarini ishonchliligi o'rganilayotgan muammoni keng ko'lamda ochib berishda yaxlit ilmiy-pedagogik yondashuv, tadqiqot maqsadi, predmeti hamda pedagogik vazifalar mohiyatiga muvofiq tadqiqot metodlarining tanlanganligi, tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan respondentlar sonining talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov ishlarining statistik ma'lumotlarga tayanilganligi va matematik-statistik jihatdan qayta ishlanganligi, dastlabki nazariy tamoyillarning izchilligi, tajriba-sinov ish natijalari bo'yicha asosiy nazariy takliflarni amaliy tasdiqlanganligi, olingan natijalarning aniq metodlar yordamida tekshirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini autentik matnlarni o'qishni o'rgatish mazmun-mohiyati yoritilganligi, ingliz tilida autentik matnlarni o'qishni o'rgatishning talabalarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatining o'ziga xos pedagogik hamda metodik xususiyatlarini belgilab berilganligi, muammoning o'rganishga doir yondashuvlarning tahlil etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tili mashg'ulotlarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini autentik matnlarni o'qishni o'rgatish vositasida mazmun-mohiyatini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

“kompetensiya”, “kommunikativ kompetensiya”, “sotsiolingvistik kompetensiya” tushunchalarining tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik va lingvodidaktika sohalaridagi mazmun-mohiyati ilmiy-metodik jihatdan asoslanib, autentik matnlarni tanlashga qo'yiladigan mazmuniy moslik (Content appropriateness), tilda real kontekstga moslik (authenticity of language use), til darajasiga moslik (language level adequacy), hajmi va strukturaviy soddaligi (length and structure suitability) metodik talablar o'zbek tili va o'rganilayotgan chet tilning madaniy (cultural), sotsiolingvistik (sociolinguistic), nutqiy (speech) me'yorlarini qiyoslash tamoyili asosida aniqlashga oid tavsiyalar “Til aspektlari amaliyoti” o'quv qo'llanmasiga singdirilgan. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 6-noyabrdagi 491-son buyrug'i asosida berilgan № 491616-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini C1 darajalarida egallanishiga erishilgan;

til materialining sotsiolingvistik xususiyatlari (sociolinguistic features), madaniyatlararo tafovutlar (cross-cultural differences), kontekstual moslik (contextual appropriateness) darajasi inobatga olgan holda differensial yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida uchraydigan leksik, grammatik va fonetik qiyinchiliklar hamda xatolar tipologiyasi aniqlashga doir amaliy takliflardan xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi fan dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan. (Namangan davlat chet tillari institutining 2025-yil 14-iyuldagi 1637-03-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'qish (reading)

maslh'ulotlarida talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishda leksik, grammatik va fonetik qiyinchiliklarni bartaraf etishga doir maslhqlar ishlab chiqilgan.

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini autentik matnlarni o'qishni o'rgatish orqali takomillashtirish bo'yicha inglizcha maslhq va topshiriqlar tizimi tilning akkumulyativ (accumulative), identifikatsion (identificatory), kommunikativ (communicative), apellyativ (appellative) va kognitiv (cognitive) funksiyalaridan foydalanish orqali ishlab chiqilgan takliflardan xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi fan dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Namangan davlat pedagogika institutining 2025-yil 25-iyundagi 22-18/1120-01/01-son ma'lumotnomasi) Natijada, o'qish (reading) maslh'ulotlarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirish samaradorligi ta'minlangan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyani tabiiylik (naturalness), kontekstlilik (contextuality), murakkablik (complexity), foydalilik (usefulness) xususiyatlariga ega bo'lgan podkast transcriptlari, blog postlari, gazeta va jurnal maqolalari kabi autentik matnlarni o'qishni o'rgatishning WebQuest, Podcast-based Learning, Collaborative Reading innovatsion texnologiyalari asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalaridan 2023-2024-yillarda bajarilgan "ERASMUS+ Capacity Building Project 101129076 EMPOWER: Women Entrepreneurship, Empowerment, employability and self-confidence" loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. (Namangan davlat chet tillari institutining 2025-yil 14-iyuldagi 1641-03-raqamli dalolatnomasi) Natijada, talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishda autentik matnlarni o'qib tushunganligini og'zaki nutqni tekshirish usullari orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirish darajasini belgilovchi indikatorlar davlat ta'lim standartlari va umumevropa (CEFR) talablari hamda kognitiv (bilim), operatsional (amaliy ko'nikma), va affektiv (shaxsiy-munosabatga oid) komponentlarni qamrab olgan sotsiolingvistik kompetensiyaning integrativ modeli asosida ishlab chiqilgan tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanali tomonidan tayyorlangan "Bolalar va biz", "Ta'lim va taraqqiyot" nomli eshittirishlarining 2025 yil yanvar va may oylaridagi sonlarining oliy ta'limga oid ruknida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «O'zbekiston-24» ijodiy birlashmasi» davlat muassasasining 7-iyul 2025-yildagi 05-09-1089-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirish metodikasini ommalashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 4 ta xalqaro anjumanda va 4 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 28 ta ilmiy ish, shulardan 1ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya, 1 ta o'quv-uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy

nashrlarda 11 ta maqola, shundan, 8 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 213 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt predmeti va usullari aniqlangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy- nazariy va amaliy ahamiyati, ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, ishning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida xorijiy tillarni o‘qitishda sotsiolingvistik asoslar, kompetensiya tushunchasi, mazmun-mohiyati va uning turlari, xorijiy tillarni o‘qitishda sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirish xususiyatlariga e‘tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-sonli qarorini qabul qilinishi chet tillarni, jumladan, ingliz tilini uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida mukammal o‘rganishni tashkil etish va muhim ahamiyatga ega bo‘ldi⁵.

Mazkur qaror O‘zbekistonda ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘qitishda qator ijobiy natijalarga olib kelishi nazarda tutildi. Globallashtirish va axborot asrida xorijiy tillarni o‘rganish faqatgina grammatik va leksik bilimlarga ega bo‘lishni emas, balki ushbu tillarda samarali muloqot qilishni, madaniyatlararo aloqani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni ham talab qilmoqda. Ayniqsa, ingliz tilining xalqaro aloqa vositasi sifatida ahamiyati ortib borayotgan bir paytda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Mazkur masala bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar kompetensiya, kompetentlik, kommunikativ kompetensiya tushunchalarini aniqlashtirishgan. Shuning uchun dastlab kompetensiya tushunchasiga izoh berish lozim.

Tadqiqotlarda “kompetensiya” tushunchasi u yoki bu kasb egasiga zarur bo‘lgan qonuniyat, tamoyil, talab va qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyat hamda me‘yorlar yig‘indisi degan ma‘nolarni anglatib, “samaradorlik”,

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-sonli qarori

“moslashuvchanlik”, “muvaffaqiyatlilik”, “tushunuvchanlik”, “natijalilik”, “uquvlilik”, “xoss”, “xususiyat”, “sifat” va “miqdor” kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda.

Kompetensiya atamasining mazmun va mohiyati pedagog, psixolog va metodist olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi. Talqinlar har bir fanning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ilgari suriladi. Pedagog olim V.I.Baydenkoning fikricha “kompetensiya shaxslarning bilimi, hayotiy ko‘nikma va malakasiga, layoqatiga ko‘ra mutanosiblikni o‘zida namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘lishidir deb izohlanadi⁶. Kompetensiya insonning turli sohalarida faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yig‘indisini ifodalaydi

Shuningdek, kompetentlik atamasi ham lotincha “compete“ so‘zi bilan o‘zakdosh bo‘lib, “erishayapman”, munosibman” degan ma‘nolarini anglatadi hamda muayyan sohadan xabardorligini, bilishini va tajribaga ega ekanligini bildiradi⁷.

Tadqiqotchilardan Yu.F.Maysurazde kompetentlik tushunchasini shaxs egallagan bilimlarni ketma-ketlikda qo‘llash usuli sifatida izohlaydi. Bu yondashuvning o‘ziga xos xususiyati unda bilishga nisbatan talabdan tashqari subyekt va obyekt o‘rtasidagi munosabatlar ham talab qilinadi⁸.

Psixolog olim N.V.Grishina ushbu masalaga ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yondashib, kompetentlikni “qarama-qarshiliklar tabiatini tushunish, muammolarga nisbatan konstruktiv qarashni shakllanishi, yuzaga kelayotgan vaziyatlarni tahlil qilish, ularni kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda ularni boshqarishda” deb tushunadi⁹.

Kommunikativ kompetensiya atamasiga o‘rganilayotgan chet til bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo‘llash qobiliyati, degan mazmunda ta‘rif berilgan. Ushbu atama tarkibidagi asosiy tushunchani ifodalovchi competence so‘zi dastlab N.Chomskiy tomonidan “grammatik kompetensiya”, ya‘ni gapiruvchi va tinglovchining til haqidagi bilimi, degan ma‘noda qo‘llanilgan. D.Xayms bolaning til haqidagi bilimi - grammatikani o‘zlashtirish jarayonida undan to‘g‘ri foydalanishni, qachon, qayerda, kimga, qay tarzda va nima haqida gapirish maqbulligini o‘rganish orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirib boradi, deya kommunikativ kompetensiya atamasining muallifiga aylandi¹⁰.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish muammosi nafaqat pedagog olimlar bilan birga lingvist va metodist olimlar tomonidan ham uning turli jihatlari tadqiq etilgan. Jumladan,

⁶ Байденко В.И. Выявление состава компетенции выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОСВПО нового поколения: Методическое пособие. -М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006.-72 с.

⁷ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат миллий нашриёти, -Т.: 2008. 8 том. Б-26.

⁸ Майсурадзе Ю.Ф. Роль образования в повышении компетентности руководящих кадров // Научное управление обществом. Вып. 10. М., 1976. - С.277-298.

⁹ Гришина Н.В. Психология конфликта. Хрестоматия. -2-е изд. - СПб.: Питер, 2009. - 538 с.

¹⁰ Хаймс Д. Этнография речи / Э. Хаймс // Новое в лингвистике. Социолингвистика. - М., 1975. - Вып. 7 - С. 42-95

kommunikativ kompetensiyaning nazariy va amaliy masalalari N.N.Dolovova, Ya.V.Taraskina, O.I.Xalupo, I.V.Alexina, R.S.Arefev, T.P.Popova, S.A.Strokova ilmiy tadqiqotlarida yoritib berilgan.

2003-yilda Yevropa Kengashi tillarga oid CEFR dasturini ishlab chiqdi, unda umumiy va kommunikativ til kompetensiyalarni alohida qayd etib o‘tdilar. Kommunikativ til kompetensiyasi lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik tarkibiy qismlardan iboratligi qayd etib o‘tildi.

Lingvistik kompetensiya til materiali (talaffuz, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv) bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni egallashni nazarda tutadi¹¹.

Pragmatik kompetensiya o‘rganilayotgan ingliz tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash, uzr so‘rash kabi murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi.

Sotsiolingvistik kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o‘z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini, o‘zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarini bilish hamda tili o‘rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko‘zda tutadi. Sotsiolingvistik kompetensiya til egalarida hayratlanish yoki achchiqlanishni uyg‘otmaydigan, ular uchun tabiiy, odatiy sanalgan muomalada muloqot qila olish kabilar tahlil qilishi ham ko‘rsatib o‘tilgan¹².

I.L. Bim, V.V. Safonova, P.V. Sisoyev sotsiolingvistik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida e‘tirof etadilar¹³. I.L. Bim va V.V. Safonovalar ijtimoiy-madaniy kompetensiyani tarkibiga sotsiolingvistik kompetensiyani ham kiritadilar hamda ingliz tilini o‘qitishda ijtimoiy-madaniy yondashuvni asoslab beradilar. Shunday qilib, XX asrning 90-yillaridan boshlab, sotsiolingvistik kompetensiyaga oid ikki nuqtai nazar kommunikativ kompetensiyaning bir qismi sifatida vujudga kelgan. Bizning fikrimizcha, sotsiolingvistik kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida oliy ta‘lim muassalarida rivojlantirish, takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Faqat shu tarzda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining ijtimoiy-madaniy kompetensiya doirasida tili o‘rganilayotgan mamlakat dunyosining yangi ko‘rinishini o‘rgangan holda, sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirish jarayonida dunyoning lingvistik manzarasini o‘zlashtirishi mumkin.

Oliy ta‘lim tendensiyasining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida” gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabridagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-

¹¹ Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. Language Policy Unit. Strasbourg. – 2010. –274 p. Electron Resource: www.coe.int/lang-CEFR

¹² Беленюк Н.А. Формирование социолингвистической компетенции студентов младших курсов технического вуза в процессе обучения устному общению: английский язык, базовый курс: Дис. канд. пед. наук. -Томск, 2007. - 170 с

¹³ Бим И. Л. Личностно-ориентированный подход - основная стратегия обновления школы / И. Л. Бим // Иностранные языки в школе. - 2002. — № 2. - С . 11-15.; Сысоев П.В. Социокультурный компонент содержания обучения американскому варианту английского языка (для школ с углубленным изучением иностранного языка) : дис. ...канд. пед. наук : 13.00.02 / П.В. Сысоев; Тамбов. Гос. Ун-т. - Тамбов, 1999. - 235 с.; Сафонова В.В. Изучение языков международного общения в контексте диалога культур и цивилизаций / В.В. Сафонова. - Воронеж : ИСТОКИ, 1996.-237 с.

tadbirlari to'g'risida"gi PQ 1875-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvar PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida o'z aksini topgan bo'lib, ularda qo'yilgan talablarga binoan oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarning mazmunini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish orqali dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh o'qituvchilar tayyorlash talab etiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini o'qitishning asosiy maqsadi jadal rivojlanayotgan ijtimoiy hayotda kundalik, ilmiy va sotsiolingvistik sohalarida xalqaro miqyosda erkin faoliyat olib borishlari uchun chet tillarida sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirishdan iboratdir. DTSda kompetensiyalar uchta guruhda tasnif etiladi:

– lingvistik kompetensiya ya'ni til kompetensiyasi (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutqiy kompetensiya (tinglash, gapirish, o'qish va yozish) bo'yicha ko'nikmalarni egallashdan iboratdir;

– sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o'z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, marosimlarini va boshqa milliy- madaniy xususiyatlarini bilish hamda tili o'rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko'zda tutadi;

– pragmatik kompetensiya o'rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Mazkur standartda diskurs kompetensiyasi pragmatik kompetensiya tarkibiga kiritilgan. Diskurs kompetensiya og'zaki va yozma nutqdagi izchillikni ta'minlashda lingvistik signallarni tushunish va interpretatsiya qilish ko'nikmalarini nazarda tutadi.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida biz bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirish masalasini Davlat ta'lim standartida (DTS) belgilangan chet tillari bo'yicha tayyorgarlik darajalari va ta'lim mazmuni asosida chuqur tahlil qildik. Shu asosda, ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasiga doir tipologik tasnif ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya qilindi. Tadqiqot natijasida sotsiolingvistik kompetensiyaning mazmuni hamda tarkibiy tuzilmasi ilmiy-nazariy asosda aniqlanib, ularning metodik asoslari ishlab chiqildi.

Jumladan, biz ta'lim yo'nalishi: 60110900-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) bo'yicha bakalavriyat ta'lim bosqichida o'qitiladigan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirish imkoniyatlari katta bo'lgan "Til aspektlari amaliyoti", "O'qish va yozuv

amaliyoti”, “Nutq ko‘nikmalar integratsiyasi” fanlarini tajriba-sinov uchun tanladik va uning sotsiolingvistik imkoniyatlarini aniqladik.

“Til aspektlari amaliyoti”, “O‘qish va yozuv amaliyoti”, “Nutq ko‘nikmalar integratsiyasi” fanlari asosida tajriba-sinov ishlarini o‘tkazdik. Shuningdek, ushbu fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarining tadqiqot mavzusi doirasidagi imkoniyatlarini tahlil qildik.

Nutq ko‘nikmalar integratsiyasi fani bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularda o‘rganilayotgan tilga oid mamlakat madaniyatini boshqa madaniyatlar bilan solishtira olish va tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, bu fan madaniyatlararo muloqot bilan bog‘liq masalalarga tanqidiy yondashish, ularni to‘g‘ri tushunib, izohlash orqali eshitish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llay olishga xizmat qiladi. Mashg‘ulot davomida talabalar madaniy muhitning tilga ta’siri haqidagi bilimlarini chuqurlashtiradi, boshqa madaniyatlarga nisbatan bag‘rikenglikni rivojlantiradi, shuningdek, o‘z his-tuyg‘ulari va munosabatlarini aniq va batafsil ifodalash ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Umuman olganda, bu fan sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi bilim va malakalarni mustahkamlashni ko‘zda tutadi.

Fanning asosiy mazmuni talabalarda madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish, turli xalqlar va millatlarning urf-odatlarini, kundalik hayot tarzi, madaniy qadriyatlarini haqida bilim va tasavvurlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Xususan, quyidagi yo‘nalishlar ushbu fanda asosiy o‘rin egallagan:

Turli mamlakatlar va millatlarning o‘ziga xos madaniyati, an‘analari va salomlashish odatlarini o‘rganish orqali talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va bag‘rikenglik tuyg‘usini shakllantirish;

Turli millatlarning ramzlari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining davlat timsollari, siyosiy tuzilishi va ularning tarixiy-madaniy asoslari haqida chuqurroq bilimga ega bo‘lish;

Ovqatlanish madaniyati va milliy taomlar orqali xalqlarning madaniy tafakkuri, yashash tarzi hamda oilaviy qadriyatlarining mohiyatini anglash;

Dunyo mamlakatlaridagi ta’lim tizimlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi muloqot uslublarini solishtirish va tahlil qilish orqali ilg‘or tajribalarni o‘rganish;

Shaharlik va qishloq aholisi turmush tarzining madaniy, iqtisodiy va kommunikativ jihatlarini tahlil qilish orqali til muhitiga oid farqlarning mohiyatini tushunish;

Dam olish va sport faoliyatlari, milliy va xalqaro sport turlari, ular bilan shug‘ullanish madaniyati, shuningdek, kommunikatsiya vositalarining o‘rni va madaniy xususiyatlari haqida tasavvurlar hosil qilish.

Mazkur tavsiyalar asosida fanning ta’limiy va tarbiyaviy mazmuni yanada boyitiladi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi nafaqat lingvistik bilim va ko‘nikmalarga, balki keng sotsiolingvistik dunyoqarashga ega bo‘lgan, madaniy tafovutlarni to‘g‘ri anglaydigan, madaniyatlararo muloqotda samarali ishtirok eta oladigan yetuk mutaxassis sifatida takomillashadi. Shuningdek, ijtimoiy geografiya, ijtimoiy demografiya, qo‘shni xalqlar hayoti, xalqlararo va millatlararo

madaniy aloqalar tarixi kabi muhim sohalarni chuqur o'rganish orqali ularning umumiy madaniy saviyasi hamda kommunikativ kompetensiyasi sezilarli darajada takomillashadi.

Shu maqsadda dunyo ilm-fani doirasida pedagogika, lingvistika va metodika sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar tomonidan ishlab chiqilgan konseptual nazariyalar, yondashuvlar va modellarga asoslanish ayni muddaodir. Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda bu muammo yuzasidan xalqaro miqyosda e'tirof etilgan yetakchi ilmiy markazlar, oliy ta'lim muassasalari va malaka oshirish institutlari tomonidan keng qamrovli ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Amerikalik lingvist olimlar tomonidan Oksford universitetida ishlab chiqilgan anglosentristik yondashuv ham alohida e'tiborga loyiq. Anglosentristik yondashuv — bu ingliz tilini o'rganish va o'rgatishda til bilan birga uning asosida shakllangan madaniyat, mentalitet va dunyoqarashni ham o'rganishga asoslangan yondashuvdir. Bu kontsepsiya amerikalik lingvist olimlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ayniqsa Oksford universitetida ingliz tili o'qituvchilari tayyorlashda faol qo'llaniladi.

Yale Universitetida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishga asoslangan innovatsion pedagogik yondashuvlar keng joriy etilmoqda. Xususan, bu erda internet-loyiha formatida o'quv guruhlarini tashkil etishni talab qiladigan hamda o'rganilayotgan mavzuni global tarmoqning turli elektron resurslaridan foydalanib loyihalashtirish imkonini beruvchi o'quv instrumentlarining yangi avlodi ishlab chiqilgan. Bular qatoriga vebkvestlar (WebQuests), elektron kundaliklar (blogs), elektron portfellar (e-portfolios) va podkastlar (podcasts) kiradi.

Janubiy Koreyaning Sogang University (Seul shahri) — til ta'limi va madaniyatlararo kommunikatsiyani integratsiyalashga asoslangan ilg'or o'quv-uslubiy yondashuvlarni qo'llashda yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biridir. Ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida bu universitetda kross-madaniy (cross-cultural) yondashuvga alohida e'tibor qaratilgan.

Bunday yondashuvlar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'zlashtirayotgan bilimlari va ko'nikmalari faqat nazariy bilimlar darajasida qolib ketmasdan, balki ularni real yoki shartli-real sotsiolingvistik vaziyatlarda qo'llash, ularni model qilish, tahlil qilish va amaliyotda sinab ko'rish orqali mustahkamlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning "Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyani autentik matnlarni o'qishni o'rgatish vositasida takomillashtirishning lingvodidaktik asoslari" deb nomlangan ikkinchi bobida autentik matnlarni lingvodidaktik imkoniyalari, autentik matnlarni tanlashga qo'yiladigan zamonaviy talablar hamda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini autentik matnlarni o'qishni o'rgatish vositasida takomillashtirish tamoyillari tahlil qilindi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishda matn muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotimizda matnga berilgan tariflarni ham tahlilga tortishni joiz topdik. Tilshunoslikda matnga

berilgan juda ko‘p va xilma-xil ta’riflarning deyarli barchasida bog‘lanishlik va yaxlitlik belgisi u yoki bu tarzda o‘z ifodasini topgan. Masalan, nemis tilshunosi V. Dressler “Matn sintaksisi” nomli maqolasiga X. Vaynrixning “Matn - bu, shubhasiz, shunday butunlikki, unda barcha narsa o‘zaro bog‘langandir” shaklidagi ta’rifini epigraf qilib olgan. Yoki boshqa bir tadqiqotchi D.A. Koxening matnga bergan ta’rifi mana bunday: “Yaxlitlikni nazarda tutgan holda zamon yoki makonda joylashtirilgan gaplarning har qanday ketma-ketligi matn hisoblanadi”¹⁴.

Zamonaviy davrda olimlar matnni aniqlash va uning asosiy xususiyatlarini belgilashda muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu holat, avvalo, matn mazmunining murakkabligi va uning tarkibiy jihatdan bir butunligi bilan bog‘liq. Matnning mazmuni ko‘pincha subyektiv omillarga bog‘liq bo‘lib, uni har bir talaba o‘z aqliy, emotsional va kommunikativ tajribasiga ko‘ra turlicha qabul qiladi.

Hozirgi ilmiy qarashlarga ko‘ra, matn faqat til birliklari to‘plami emas, balki u voqelikni til vositasida ifoda etuvchi hodisa sifatida qaraladi. Matn shu bilan birga muloqotning markaziy shakli, axborotni saqlash va uzatish vositasi, madaniy qadriyatlarni mujassam etuvchi mahsul, ma’lum tarixiy davrning belgisi va inson shaxsiy hayotining in’ikosi hisoblanadi.

Tabiiy sharoitlarda yaratilgan matn axboroti autentik xususiyatiga ega. Sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirishda autentik matnlar alohida didaktik resurs sifatida ajralib turadi. Chunki autentik matnlar – bu real hayotiy ehtiyojlarga asoslangan, til soxiblari tomonidan yaratilgan matnlar bo‘lib, ular tilni sun’iy emas, balki hayotiy shaklda o‘rganishga xizmat qiladi. Bunday matnlar orqali bo‘lajak o‘qituvchilar turli ijtimoiy kontekstlardagi muloqot shakllarini tahlil qiladi, madaniy tafovutlarni anglaydi, nutq uslublari, slang, idioma va ijtimoiy vaziyatga mos ifodalarni o‘zlashtiradi.

Autentik matnlar “...ta’limiy maqsadlarda yozilmagan, haqiqiy hayotdagi matnlar” deb ta’riflangan¹⁵. Shuning uchun autentik matnlar o‘rganilayotgan til haqida real ma’lumotlarni bera oladi. Ular til hamjamiyatida ma’lum bir ijtimoiy maqsadni bajarish uchun yaratilgan materiallar” hisoblanadi¹⁶. Bu esa til o‘rganish uchun maxsus yaratilgan, ya’ni boshqa matn turlaridan farq qiladi. Badiiy, ilmiy matnlardagi til sun’iy va bir xillikka ega bo‘lib, odatda o‘rgatilishi kerak bo‘lgan narsaga qaratilgan. Ushbu matn turlari quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi: har doim mukammal tuzilgan gaplar; grammatik tuzilma bilan berilgan savol to‘liq javob oladi; tuzilmalar qayta-qayta takrorlanadi; ko‘pincha yaxshi “o‘qilmaydi” (ya’ni tabiiy emas).

Autentik matnlar o‘rganuvchilarga tilning shakli emas, balki haqiqiy tilda muloqot qilish imkonini beradi. Talabalar o‘rganayotgan tilni auditoriyadan

¹⁴ Cohen A. D. The production of Speech Acts by EFL learners / A. D. Cohen, E. Olshtain // TESOL Quarterly, 1993. - № 27 (1). - P. 33 - 56.

¹⁵ Wallace, C. (1992) Reading Oxford, O.U.P.

¹⁶ Peacock, M. (1997) The Effect of Authentic Materials on the Motivation of EFL Learners in English Language Teaching Journal 51, pp 2; Senior, R (2005) Authentic Responses to Authentic Materials in English Teaching Professional 38, pp71; Martinez, A.G. (2002) Authentic Materials: An Overview on Karen's Linguistic Issues; Guariento, W. & Morley, J. (2001) Text and Task Authenticity in the EFL Classroom in ELT Journal 55(4), pp 347-353

tashqarida qanday ishlatilishini his qiladilar. Shu sababli, turli manbalardan material tanlayotganda, asosiy maqsad shaklni emas, balki ma'noni tushunish bo'lishi kerakligini hisobga olish lozim, ayniqsa, adabiy matnlardan foydalanilayotgan bo'lsa — e'tibor nima deyilayotganiga qaratilishi kerak, adabiy shakl yoki uslubga emas.

Ingliz tili mashg'ulotlarida autentik matnlardan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega ekanligi ma'lum: a) talabaga autentik materiallar taqdim etilganda, ular tilni til soxiblari qanday ishlatishini aniq misollar orqali ko'rishadi, b) talabalar shunga o'xshash vaziyatlarga duch kelganda o'zlarini ishonchliroq his qilishadi va norasmiy yuzma-yuz muloqotda yaxshiroq harakat qilishadi, c) autentik materiallar ko'proq norasmiy, ijtimoiy yo'naltirilgan va keng tarqalgan bo'ladi. Ular grammatik qoidalarni mustahkamlashda qimmatli vosita bo'lishi mumkin.

Shu maqsadda tadqiqotimizda autentik matnlarni lingvodidaktik imkoniyatlarini yoritib berish ahamiyatlidir. Lingvodidaktik imkoniyat — bu til materiallarining yoki metodik vositalarning o'quv jarayonida tilni o'rgatish va o'rganishda qanday foyda berishi, ya'ni ularning ta'limiy imkoniyatlarini bildiradi. Autentik matnlarni lingvodidaktik imkoniyatlari quyidagilar: 1) Haqiqiy til muhitini taqdim etadi; 2) Turli ijtimoiy vaziyatlarda tilni qo'llashni o'rgatadi; 3) Madaniy kontekstni o'rgatadi; 4) Ijtimoiy-ma'naviy tafakkurni shakllantiradi; 5) Til uslublari va registrlarini ko'rsatadi; 6) Slang, idiom va frazeologizmlarni o'rgatadi; 7) Leksik va grammatik boylikni kengaytiradi; 8) Nutq aktlari va muloyimlik strategiyalarini tushuntiradi; 9) Tanqidiy va analitik fikrlashni rivojlantiradi; 10) Sosiolingvistik kompetensiyani takomillashtiradi.

Autentik matnlar orqali xorijiy til o'rganayotganlar boshqa millat vakillarining bayramlari, marosimlari, kundalik hayoti bilan tanishadi.

Misol: Angliya haqida autentik maqola: “Bonfire Night” (Gey Foks kuni) Fransiyada “La Chandeleur” (krep tayyorlash bayrami) haqida blog parchalari. Bu matnlar orqali talabalar madaniy tafovutlar haqida bilib oladi va boshqa millat odatlariga nisbatan hurmat bilan qarashga o'rganadi.

Autentik matnlarda madaniy belgilar to'g'ridan-to'g'ri izohsiz beriladi. Bu orqali talaba madaniy anglashni kontekst orqali mustaqil o'rganishga o'rganadi.

Misol: Restoran menyusida “tipping is not included” degan ibora AQShda xizmat haqi alohida to'lanishini ko'rsatadi. Yoki Yaponiyadagi xat yozish uslublari orqali iyerarxiya va hurmat ifodasini anglash mumkin.

Ko'pgina so'zlar va iboralar o'z madaniy kontekstida tushuniladi. Buni autentik matnlar yordamida o'rganish mumkin. Masalan, “How do you do?” – bu ibora salomlashuv uchun ishlatiladi, ammo real hayotda undan foydalanish uslubi va javobi madaniy jihatdan belgilanadi. Ingliz tilidagi “privacy”, “individualism” kabi tushunchalar Amerika va Yevropa jamiyatlaridagi qadriyatlarni aks ettiradi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari faqat tilni emas, balki uni qanday ijtimoiy-madaniy holatda ishlatishni o'rganadi. Bu esa madaniyatlararo tushunmovchiliklarning oldini oladi. Masalan: Autentik e-mail matnlari orqali Amerika va Yaponiyadagi murojaat shakllarining farqlari tushuntiriladi. Video

lavhalardagi muloqot orqali mimika va ijtimoiy masofaning madaniy farqlari ko'rsatiladi.

Autentik matnlarning ijtimoiy-ma'naviy tafakkurni shakllantirishdagi imkoniyatlari. Autentik matnlar ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning ijtimoiy hayoti, qadriyatlari va urf-odatlarini haqida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot beradi. Misol uchun, Thanksgiving Day, Remembrance Day yoki Martin Luther King Day haqidagi maqolalar orqali talaba AQSh va Buyuk Britaniyada muhim tarixiy va axloqiy qadriyatlar bilan tanishadi. Oila, do'stlik, shaxsiy erkinlik, jamiyatdagi tenglik kabi tushunchalar inglizcha hikoya va intervyular orqali yoritiladi. Ko'plab badiiy va publitsistik autentik matnlar halollik, adolat, tolerantlik, mehr-oqibat kabi umuminsoniy qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Roald Dahl, J.K. Rowling, George Orwell kabi mualliflarning matnlarida insoniylik, ijtimoiy tenglik, axloqiy tanlovlar ko'rsatiladi. Bloglar yoki ommaviy chiqishlar (TED talks) orqali yoshlar o'z shaxsiy tajribalarini, ijtimoiy mavzularga munosabatini bildiradi – bu esa bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tafakkuriga bevosita ta'sir qiladi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari autentik matnlarni o'z milliy qadriyatlari bilan solishtiradi. Bu esa ularning madaniy relativizm, ochiq fikrlik va xalqaro ongli pozitsiyani shakllantirishiga xizmat qiladi. Misol uchun, AQShdagi "freedom of speech" (so'z erkinligi) haqidagi maqola o'zbekcha "so'z erkinligi"lar bilan qiyoslanadi. Nikoh, oila, ayollar huquqi, yoshlik haqidagi matnlar o'zbek va ingliz madaniyatidagi tafovutlarni tushunishga yordam beradi.

Slang, idiom va frazeologizmlar o'z ma'nosini faqat kontekstdan kelib chiqqan holda anglatadi. Autentik matnlar bunday birliklarni sun'iy emas, real vaziyatda qanday ishlatilishini ko'rsatadi. Misol uchun, "I'm totally broke this week. Let's just chill at home." – bu erda broke – "puli yo'q", chill – "dam olmoq" (slang) tarzida ishlatilgan.

Ko'plab idiom va frazeologizmlar madaniy asoslangan bo'ladi. Autentik matnlar orqali bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari ularning kelib chiqish manbai va madaniy ma'nosini tushunadi. "Spill the beans" – "sirni ochmoq" (aslida qadimgi o'yinlardan kelib chiqqan ibora), "The ball is in your court" – "endilikda qaror sizga bog'liq" (tennisga oid metafora). Autentik maqolalarda yoki blog postlarida bu kabi iboralar oddiy tilda ishlatiladi va kontekst orqali anglash imkoni yaratiladi.

Idiomatik ifodalar tilda emotsional boylik, ifoda vositalari va stilistik rang-baranglikni yaratadi. Autentik badiiy asarlar, hikoyalar va filmlar matnlari bu jihatlarni amaliy ko'rsatadi. Misol: "She was over the moon when she heard the news." – Bu ifoda oddiy "xursand bo'ldi" o'rniga ishlatilgan, emotsional kuchga ega idiom.

Slang ko'pincha norasmiy suhbatda, idiomlar esa har xil uslublarda, frazeologizmlar esa ko'proq badiiy yoki xalqona matnlarda qo'llaniladi. Autentik matnlar bu birliklarning qaysi vaziyatda va kim bilan ishlatilishini o'rgatadi.

Autentik matnlar o'zida madaniyatga xos tasavvurlar, qadriyatlar, urf-odatlar va muomalalar bilan bog'liq til birliklarini o'z ichiga oladi. Masalan: Britanica ifoda: "Would you mind closing the window?" , bu ibora o'zbek tiliga bevosita tarjima qilinsa oddiy tuyuladi, lekin aslida bu juda muloyim, nozik talab bo'lib,

madaniy kontekstsiz tushunish qiyin. Yoki, Amerika blogida: “Thanksgiving is the time to be grateful.” bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari bu bayramning milliy-madaniy kontekstini tushunmasdan bu ifodaning chuqur ma’nosini anglay olmaydi.

Autentik matnlar talabani boshqa xalqning hayoti, qadriyatlari, jamiyatdagi muammolari bilan tanishtirib, uni madaniyatlararo muloqotga tayyorlaydi. Bu orqali u tilni nafaqat “gapirish vositasi”, balki ijtimoiy-madaniy ko‘prik sifatida idrok etadi.

Autentik matnlar talabalarga tilning ijtimoiy, madaniy va uslubiy jihatlarini tushunishga imkon beradi. Ular: a) ijtimoiy rolda to‘g‘ri til ishlatishni o‘rgatadi, b) madaniy sezgirlikni oshiradi, c) sotsiolingvistik tafovutlarni ko‘rsatadi, d) madaniyatlararo kommunikatsiyani samarali qilishga xizmat qiladi.

Shuning uchun, autentik matnlar sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirishda eng muhim lingvodidaktik vosita hisoblanadi.

Tadqiqotimizdagi masalalardan biri bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari ingliz tilida o‘qish uchun qanday mavzulardagi autentik matnlar tanlanishi lozim degan metodik masaladir. Ma’lumki, o‘qish uchun berilgan ingliz tilidagi nutq mavzulari ingliz tili o‘qitish maqsadlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Nutq mavzulari ingliz tili o‘qitish metodikasida hozirgacha mukammal o‘rganilmagan va tadqiq qilinmagan sohalardan biridir. Shunga qaramay, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun o‘quv dasturlarda ingliz tilida tegishli mavzular tizimi tavsiya etilgan.

Metodik adabiyotlarda autentik matnlarning tanlovi quyidagi sabablarga ko‘ra muhim deb hisoblanadi: a) Talabalarni real hayotda uchraydigan til bilan tanishtirish. b) Tilning stilistik, leksik va pragmatik jihatlarini o‘rgatish. c) Madaniy kontekstni tushunish va sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirish. d) Tanqidiy fikrlash va til sezuvchanligini rivojlantirish.

Ko‘plab ingliz tili metodikasi bo‘yicha adabiyotlarda (masalan, Jeremy Harmer, David Nunan, Penny Ur, Alderson, J.C.)¹⁷ autentik matnlarni tanlashda quyidagi asosiy me‘zonlarni keltiriladi: 1) Maqsadga muvofiqlik (Pedagogical relevance). Matn dars mavzusiga, talabalar yoshi va til darajasiga mos bo‘lishi kerak. Masalan: C1 darajadagi talabalarga BBC yangiliklarining murakkab tahliliy maqolasini berish tavsiya etiladi. 2) Til darajasiga moslik (Linguistic appropriateness). Matndagi leksika va grammatik strukturalar talabalar uchun qiyinchilik darajasini oshirib yubormasligi lozim. Biroq, ma’lum darajadagi yangi so‘zlar bo‘lishi mumkin. 3) Qiziqarlilik (Engagement). Matn mazmuni talabalarni jalb qiladigan, dolzarb va aktual bo‘lishi kerak. Bu ularning motivatsiyasini oshiradi. Masalan: o‘smirlar uchun YouTube sharhlari, TikTok foydalanuvchi fikrlari, komiklar; katta yoshdagilar uchun yangiliklar, esse, intervyular. 4) Madaniy ahamiyat (Cultural value).

Autentik matnlar tanlanganda “tanlash manbai”, “tanlash mezonlari”, “tanlash birligi kabi metodik tushunchalarni hisobga olinishi metodik adabiyotlarda tadqiq qilingan.

¹⁷ Alderson, J.C. *Assessing Reading* Cambridge, C.U.P.2000. – 27 p.

Tanlash manbaini aniqlashda til materiali aktiv va passiv minimumlarga ajratiladi. Tilni aktiv bilish deganda barcha asosiy nutq faoliyati turlari hisoblangan — gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozish kabi ko‘nikmalarni mukammal egallash tushuniladi. Tilni passiv bilish esa, asosan, og‘zaki va yozma matni tushunish, ya’ni til vositalarini qabul qilishga asoslangan faoliyatni anglatadi. Tanlash mezonlari deganda, matnning talabalar uchun foydaliligi, ahamiyati va o‘quv jarayoniga integratsiyalashuv darajasini aniqlashga yordam beradigan o‘lchov va ko‘rsatkichlar tushuniladi¹⁸. Ingliz tilidagi jurnal, gazeta va bloglardagi o‘qish uchun tavsiya etilgan matnlarni tanlashda quyidagi metodik mezonlar asos qilib olinadi:

Hisob-kitob mezonlari — bu mezonlar matnning hajmi, so‘z birliklari soni, murakkablik darajasi, takrorlanuvchi so‘zlar soni, gap uzunligi kabi ko‘rsatkichlarga asoslanadi. Bu turdagi mezonlar orqali matni talabalarning til bilimiga mos yoki mos emasligini aniqlash mumkin.

Metodik mezonlar — bu mezonlar talabalarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi, til o‘rganishdagi ehtiyojlari va motivatsiyasi bilan bog‘liq. Shuningdek, matnning qanchalik didaktik jihatdan foydali ekani, uni ekspluatatsiya qilish imkoniyati (ya’ni matndan grammatik, leksik va madaniy o‘quv maqsadlarida foydalanish mumkinligi) ham shu mezon doirasida tahlil qilinadi.

Tilshunoslik mezonlari — bu mezonlar matnda mavjud bo‘lgan leksik birliklar, grammatik strukturalar, uslubiy vositalar va fonetik xususiyatlar asosida aniqlanadi. Matnning uslubiy birligi, kontekstga mosligi, real hayotiy vaziyatlarga yaqinligi, autentikligi kabi jihatlar ham shu mezon asosida baholanadi.

Ushbu mezonlar asosida tanlangan matnlar nafaqat til o‘rgatish, balki talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini ham takomillashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Matn tanlashda eng maqbul yondashuv bu — interaktivlik, motivatsiya, qiziqish uyg‘otish, mazmunning dolzarbligi, va o‘rganuvchilarning real ehtiyojlariga moslashganlik tamoyillariga asoslanishdir.

Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarida bu maqsad talabalarning ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-ommabop matnlarni o‘qib anglay olishi, shuningdek, ingliz tilida og‘zaki va yozma shaklda samarali muloqot qila olish qobiliyatini shakllantirish sifatida ko‘rsatilgan.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun ingliz tilini o‘rganishda sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirish quyidagi to‘rt tan olingan, o‘zaro bog‘liq va yagona tizimni tashkil etuvchi hamda ta’limiy maqsadga erishishni ta’minlovchi tamoyillar asosida quriladi: a) lingvistik tamoyillar; b) psixologik tamoyillar; v) didaktik tamoyillar (umumdidaktik, umumuslubiy); g) metodik tamoyillar (xususiy didaktik, xususiy uslubiy).

Lingvistik tamoyillar deganda lug‘aviy minimumlar va o‘quv lug‘atlarini tuzish maqsadida leksikani tanlashning lingvistik mezonlari tushuniladi, ya’ni: so‘zlarning qo‘llanish imkoniyati tamoyili, so‘z yasashdagi leksikani ahamiyatlilik tamoyili, so‘zning ko‘p ma’nodlilik tamoyili, uslubiy jihatdan cheklanmaganligi

¹⁸ Жалолов Ж. Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. Чет тиллар олий ўқув юртлири (факультетлари) талабалари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –368 б.

tamoyili, soʻzning konstruktiv salohiyati tamoyili va chastotasi (ishlatilish tezligi) tamoyili¹⁹.

Taʼlimning psixologik tamoyillari xorijiy til oʻrganish jarayonida talabalar shaxsiyatining psixologik xususiyatlarini chuqur hisobga olishga asoslanadi. Bu tamoyillar talabalarda ichki ehtiyoj va til oʻrganishga qiziqishni shakllantirishga, ularni faollikka undashga xizmat qiladi.

Didaktik tamoyillar esa, umumiy oʻqitish nazariyasiga asoslangan boʻlib, ular har qanday fan, xususan, xorijiy tilni oʻqitishda ham muhim oʻrin tutadi. Ular oʻquv jarayonini samarali, maqsadli va tizimli tashkil etishga yoʻnaltirilgan.

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) talabalari uchun chet tilini oʻrganish jarayonida sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirish umumdidaktik hamda xususiy metodik tamoyillarga asoslanadi. Ushbu tamoyillar majmuasi turli metodistlar tomonidan turlicha yondashuvlar asosida talqin qilinadi. Bunda, ayniqsa, oʻquv jarayonining mazmuni, maqsadi va oʻrgatilayotgan tilning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi ahamiyati muhim omil sifatida eʼtiborga olinadi.

Masalan, boʻlajak ingliz tili oʻqituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyani samarali takomillashtirish maqsadida T.M.Gubina tomonidan taklif etilgan didaktik tamoyillar quyidagilardan iborat: ilmiylik, tizimlilik va izchillik, onglilik, faollik va mustaqillik, koʻrgazmalilik, imkoniyatga moslik, taʼlim natijalarining mustahkamligi, taʼlimiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarning uygʻunligi, talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olish²⁰.

Y.S. Nechayeva sotsiolingvistik kompetensiyani talabalarda takomillashtirishda sotsiofonetik komponentga tayanishni taklif etadi. Uning fikricha, bu jarayon umumdidaktik tamoyillar asosida tashkil etilishi lozim. Mazkur umumiy tamoyillar quyidagilarni oʻz ichiga oladi: insonparvarlik (gumanizatsiya), gumanitarlashtirish, fundamentallik, ilmiylik, tizimlilik va izchillik, imkoniyatga moslik, amaliy yoʻnaltirilganlik (praktik yondashuv), dialoglilik (muloqotga ochiqlik). Bu tamoyillar talabalarda ijtimoiy-madaniy kontekstda chet tilini ongli va samarali oʻzlashtirishga xizmat qiladi²¹.

Dissertatsiyaning “Boʻlajak ingliz tili oʻqituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyani autentik matnlarni oʻqishni oʻrgatish vositasida takomillashtirish metodikasi” deb nomlangan uchunchi bobida autentik matnlarni oʻqishni oʻrgatish metodik tadqiqi, sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirishda zamonaviy taʼlim texnologiyalar va boʻlajak ingliz tili oʻqituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyani autentik matnlarni oʻqishni oʻrgatish vositasida takomillashtirish metodikasi masalalari yoritib berilgan.

Mamlakatimizda boʻlajak ingliz tili oʻqituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini ingliz tilida autentik matnlarni oʻqish orqali takomillashtirishga

¹⁹ Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: базовый курс лекций. – Москва: Просвещение. - 2005. –8 с.

²⁰ Губина Н.М. Формирование межкультурной компетенции студентов в процессе обучения деловому английскому языку в элективном спецкурсе: кандидат, -Москва, 2004. – 189с.

²¹ Нечаева Е.С. Методика формирования социолингвистической компетенции студентов языковых факультетов педагогических вузов на основе социофонетического компонента: на материале английского языка: Диссертация кандидата педагогических наук: -Москва, 2010. - 216 с.

oid o‘quv-metodik vazifalarini ishlab chiqish va joriy etish dolzarflik kasb etmoqda.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilariga matn o‘qitishning samarador metodikasini ishlab chiqish uchun o‘qishning kognitiv metodi haqida axborotga ega bo‘lish muhim. O‘qishning kognitiv jarayonlariga oid tadqiqot olib borgan R.L. Solso fikricha, matn o‘qish pedagoglarni ikkita sababga ko‘ra qiziqtiradi: a) birinchidan, matn o‘qish jarayonini o‘rganish; b) ikkinchidan, matn o‘qishni o‘rganish va mavjud bilimning o‘zaro ta’siri sifatida bilish nazariyasi yaratilishiga ko‘maklashadi²².

Kishilarni matn o‘qishga majbur qiladigan narsa ko‘proq bosma shaklda berilgan materialdan axborot olish bilan bog‘liq. Matndan axborot olish, tushunish va eslab qolish mexanizmlari hamda bu jarayonga ko‘maklashadigan yoki to‘sqinlik qiladigan komponentlar kommunikativ-kognitiv metodikaning asosiy masalalari doirasini tashkil etadi. Shu bois, o‘qishning kognitiv psixologiyasiga oid mulohazalarga murojaat etamiz.

O‘qiganda qator perseptiv-kognitiv bosqichlar izchil muvofiqlashtiriladi. Bu bosqichlar matndagi so‘zlarni aniqlash, leksika bilan ishlash, mazmun hamda muallifning xulosasini anglashdan iborat. Bular bevosita kontekstual axborot kabi talabaniing olam haqidagi bilimlaridan kelib chiqadi, ya’ni o‘qilayotgan materialning mazmunini tushunish ro‘y beradi.

V. Kinch tomonidan ilgari surilgan modelga ko‘ra, matnni tushunish jarayoni ikki asosiy tamoyil – “quyidan yuqoriga” (bottom-up) va “yuqoridan quyiga” (top-down) axborot qayta ishlash mexanizmlari orqali amalga oshiriladi²³. Ushbu yondashuvlar matnni idrok qilish jarayonida inson tafakkurining turli darajadagi ishlash mexanizmlarini ifodalaydi. Quyida aynan “yuqoridan quyiga” model mohiyati tahlil qilinadi.

“Yuqoridan quyiga” (top-down) modeli – bu axborotni tushunishda umumiy konseptual bilimlardan xususiy til birliklariga tomon harakatlanadigan kognitiv jarayondir. Mazkur model asosida matnni tushunish talabaniing mavjud fon bilimlari (background knowledge), sotsiolingvistik va kommunikativ kompetensiyasi asosida shakllanadi. Ushbu yondashuvda talaba o‘zining avvalgi tajribalari, kontekstual bilimlari va dunyo haqidagi qarashlariga tayangan holda matnning umumiy mazmuni haqida faraz ilgari suradi. O‘qish jarayonida bu farazlar matn mazmuni orqali tekshiriladi, tasdiqlanadi yoki inkor etiladi.

Bu modelda “yuqoridagi daraja” deganda semantik-kognitiv va kommunikativ qobiliyatlar, ya’ni tilni qo‘llashga oid puxta bilimlar tushuniladi. “Quyidagi daraja” esa tilning leksik va grammatik birliklarini aniqlash, ularni tanib olish va tahlil qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

O‘qish motivi muloqot qilish, maqsad esa axborot/ma’lumot olishdir. O‘qishning ingliz tilidagi bunday maqomi talabalarni unga nutq faoliyatining mustaqil turi sifatida yondashishga undaydi, uning amaliy ahamiyatini kuchaytiradi. Tadqiqotchilardan J.J.Jalolov, M.V.Lyaxoviskiy, M.L.Vaysburdlar

²² Солсо Р.Л. Когнитивная психология. - Москва: Тривола, 1996. - 589 с. -С. 478.117

²³ Comprehension : A Paradigm for Cognition by Walter Kintsch (1998, Hardcover)

o'qishni o'rgatish bo'yicha til ta'limshunosligida fundamental ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan²⁴. Mazkur tadqiqotlarda ingliz tilida o'qish nutq faoliyati turini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari, ingliz tilida o'qishni o'rgatishni axborotni o'zlashtirishdagi o'rni va ahamiyati kabi metodik masalalar atroflicha o'rganilgan, ularga doir qimmatli fikrlar bayon etilgan.

Ingliz tili o'qitish metodikasida o'qish maqsad va vosita maqomlarida o'rgatilishi joriy dasturlarda ko'rsatib o'tilgan. O'qishni maqsad va vosita maqomlarida o'rgatishni to'g'ri talqin etish uchun uning ta'limning ayrim bosqich hamda tashkiliy qismlarda tutgan o'rniga to'xtalish joizdir.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga o'qishni o'rgatish tilni bilish/o'rganish jarayoni sifatida tashkil etiladi, matn orqali talaba bilishga, undan o'zi uchun yangi va foydali ma'lumotlar olish uchun harakat qiladi. Axborot olish bilish faoliyatini harakatlantiruvchi vosita ekanligi hammamizga ma'lumdir. O'qish faoliyatining natijasi esa bilishga olib keluvchi vosita hisoblanadi. Albatta, o'qilgan matn axborotini o'zlashtirib olish uchun talaba ingliz tilida o'qish malakasini egallagan bo'lishi talab etiladi. O'qish malakasi uch bosqichli faoliyat bo'lib, nutq birligining ko'rish, uni o'qish va ma'nosini tushunish bosqichlaridan tashkil topadi. Uchala bosqichni egallash o'qish kompetensiyasini hosil qilinganligidan dalolat beradi.

Oliy ta'lim tizimida o'qishni o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari mavjudki, tadqiqotimizda ularni alohida ta'kidlab o'tish joizdir: a) xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi talabalari uchun o'qish material sifatida ijtimoiy-maishiy, badiiy, siyosiy, madaniy, o'quv-ta'limiy sohalarga oid matnlar tanlanadi. b) Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi ingliz tili ta'limida o'qishning o'rni va roli, unga qo'yiladigan dasturiy talablar OTMning quyi kurslaridan yuqoriroq - qiyinroq darajada bo'ladi. 2-3 kurslarda esa ingliz tilida o'qiladigan matnlarning murakkablik darajasi ortib boradi. c) Ingliz tilida o'qish talabalarni shu tilda nutqiy muloqot qilish, muayyan sohalarda axborotlar olishni ta'minlaydi, ularning umumiy saviyasini oshiradi. d) Talabalar ingliz tilida tili o'rganilayotgan mamlakatlar, balki mamlakatimiz va dunyo mamlakatlari haqidagi autentik axborotlardan muntazam boxabar bo'lib boradilar. e) O'qish bo'yicha mavzular tanlash talabalarning umumiy saviyasi va o'qitish bosqichlariga bog'liq bo'ladi, ingliz tilida o'qishni o'rgatish amaliy maqsad va ta'limiy vosita sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot mavzusining o'rganilishi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiologik tayyorgarligini oshirish, ta'lim jarayonining samaradorligini kuchaytirish hamda zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha muhim nazariy va amaliy asoslar yaratadi.

Innovatsion pedagogik texnologiya esa, o'z mohiyatiga ko'ra, oldindan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirishni, aniq

²⁴ Жалолов Ж. Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. Чет тиллар олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –368 б.; Ляховицкий М. В. Методика преподавания иностранных языков: Учебное пособие. –М.: Высшая школа, 1981. –159 с.; 38. Вайсбурд М.Л., Влохина С.А. Обучение пониманию нязычного текста при чтении как поисковой деятельности // Иностранные языки в школе. - 1997.-№2.-С. 84-93.

maqsadga yo'naltirilgan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish va ularni samarali qo'llash orqali yuqori darajada boshqarishni anglatadi.

Tadqiqotlar davomida innovatsion pedagogik texnologiyalar mazmun va yo'nalishiga ko'ra ikki guruhga ajratildi: a) barcha fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi texnologiyalar; b) bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan texnologiyalar.

Tadqiqotlar davomida Tramp rejasi texnologiyasining yuqori samaradorligi aniqlangan. Bu texnologiyaning muallifi — AQShlik professor Lloyd Tramp bo'lib, u AQSh oliy ta'lim tizimida keng qo'llaniladi. Tramp rejasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida katta auditoriyada yuqori malakali o'qituvchilar ma'ruza o'qishadi, so'ngra talabalar kichik guruhlarda muhokama olib borib, bahs yuritadilar, xulosa chiqaradilar va o'zaro baholashadi. Guruhlar vaqtincha tuziladi va ular o'rtasida fikr almashish uchun interaktiv munozaralar tashkil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida “O'qitishni jadallashtirish texnologiyasi” dan ham foydalanildi. Bu texnologiya turli bilim va psixologik xususiyatlarga ega talabalarni bir xil o'quv mezonlari asosida o'qitishni ko'zda tutadi. Uning asosiy maqsadi – ta'lim sifati va o'zlashtirish darajasida yagonalikka erishish, talabalar bilimini tezlashtirilgan, samarali va teng asosda shakllantirishdan iborat.

Dars jarayonida yangi atamalarni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiluvchi “Ping-pong atamashunoslik strategiyasi” ham samarali vosita sifatida qo'llaniladi. Ushbu uslub orqali talabalar yangi inglizcha atamalarni turli kontekstlarda ishlatish mahoratini egallaydilar. Darsda o'qituvchi yangi so'zlar yozilgan kartochkalarni konvertlarda talabalar o'rtasida taqsimlaydi. Har bir talaba navbati bilan kartochkadagi atamani o'qiydi, keyingi talaba esa uning ma'nosi va grammatik xususiyatlarini tushuntirib beradi. So'ngra ikkinchi talaba o'z atamasini o'qiydi, undan keyingisi izohlaydi – bu tarzda jarayon davom etadi.

“Insert” metodi (ingliz tilida Interactive Noting System for Effective Reading and Thinking) — matn bilan ishlash orqali talabalarning tahliliy fikrlash, tushunish va anglash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion o'quv strategiyasidir. Bu strategiyaning asosiy maqsadi — o'qish jarayonini tabiiy, mantiqiy va mazmunli tashkil qilish orqali matnni chuqur o'zlashtirishni ta'minlashdir. Ayniqsa, axborotga boy, autentik matnlar (masalan, biologiya yoki geografiya fanlariga oid) bilan ishlashda yuqori samara beradi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishda B. Blum tomonidan ishlab chiqilgan, so'z va iboralarni samarali o'zlashtirishga ko'mak beruvchi “Dramogermenevtika” nomli ta'lim texnologiyasi katta natijalar beradi. Ushbu texnologiya nomi yunoncha ikki so'zdan tashkil topgan: “drama” – “harakat”, “germenevtika” – “sharhlovchi” degan ma'nolarni bildiradi. Ya'ni, bu metod orqali “matnni sharhlash san'ati” asosida o'rganilayotgan til birliklari chuqur o'zlashtiriladi.

Dramogermenevtika texnologiyasining asosiy maqsadi – talabalarda yangi, ayniqsa, murakkab so'zlar va iboralarning semantik, strukturaviy va kontekstual xususiyatlarini amaliy tarzda anglatish orqali ularni puxta o'zlashtirishga erishishdir. Ushbu yondashuv, ayniqsa, ijtimoiy va lingvistik komponentlarning

o‘zaro uyg‘unligiga asoslangan atamalarni tushuntirishda nihoyatda samarali hisoblanadi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini samarali takomillashtirish, avvalo, ta‘lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni oqilona va maqsadga muvofiq tarzda integratsiya qilishga bevosita bog‘liqdir. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quv dasturida nazarda tutilgan mutaxassislik fanlarining mazmuni va xususiyatidan kelib chiqib, ta‘limni tashkil etishning zamonaviy lingvodidaktik tamoyillariga tayanishni talab etadi.

Shuningdek, innovatsion ta‘lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishda pedagogik vosita va usullarning metodik asoslariga, ularning interfaol, ko‘p formatli shakllarini qo‘llash imkoniyatlariga, hamda o‘qitish jarayonining moddiy-texnik, axborot-kommunikatsion ta‘minot darajasiga alohida e‘tibor qaratilishi lozim.

Bugungi kunda ingliz tilini o‘qitish metodikasi doirasida turli innovatsion va noan‘anaviy yondashuvlardan foydalanish kengayib bormoqda. Jumladan, rolli o‘yinlar, kompyuter texnologiyalaridan foydalanilgan darslar, tez o‘zlashtirishni ta‘minlovchi usullar, og‘zaki nutqni rivojlantiruvchi mashqlar, tez aytishlar kabi usullar bunga misol bo‘la oladi. Ayniqsa, autentik mazmunidagi matnlarni o‘rgatishda “case study”, insert, klaster, zigzag, aqliy hujum, muammoni hal qilish kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar talabalarda ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi.

Metodikani ishlab chiqishda biz shuni nazarda tutdikki, talabalar – bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi sifatida – nafaqat ijtimoiy belgilangan til elementlarini (og‘zaki va yozma nutqda) qabul qilish ko‘nikmalarini egallashlari, balki sotsiolingvistik tahlilning terminologik bazasini, sotsiolingvistik birliklarning tizimli o‘zaro bog‘liqligini mukammal bilishlari lozim.

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) talabalarining ingliz tilidagi sotsiolingvistik kompetensiya takomillashganlik darajasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish, bu kompetensiyani takomillashtirishga qaratilgan topshiriqlari, mashqlar tizimini asoslash va ishlab chiqishda zaruriy shart hisoblanadi. Bu mashqlar turli topshiriqlar majmuasidan iborat bo‘ladi.

Sotsiolingvistik kompetensiyaning takomillashtirish bosqichidagi shakllanganligi quyidagi sotsiolingvistik bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashni nazarda tutadi: muloqot vaziyatining sotsiolingvistik farqlarini – joylashuv, vaziyatning rasmiylik darajasi, muloqot registri va o‘zgalarni aniqlay olish ko‘nikmasi; mazkur jamiyatda o‘rnatilgan ijtimoiy va nutqiy o‘zaro ta‘sir me‘yorlarini bilish va boshqalar.

Ingliz tilini o‘rganayotgan xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishidagi talabalar uchun sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirish qaratilgan topshiriq va mashqlar tizimi quyidagi mezonlar asosida shakllantirildi: dolzarblik, funktsionallik, axborotga boylik, kommunikativlik, tushunarlilik, motivatsion potensial, xilma-xillik, situativlik, qiziqarlilik, tarbiyaviy ahamiyat va

muammolilik. Ushbu mezonlarning barchasi o‘z ifodasini, ayniqsa, autentik (asl) matnlarda topadi.

Bizning tadqiqotlarimiz davomida matn bilan ishlashning quyidagi uch bosqichi – tayyorlov, o‘qib tushunish, va matndan keyingi bosqichlar asosida tuzilgan innovatsion mashqlar tizimi ishlab chiqildi. Bu mashqlar:

O‘qish ko‘nikmasi asosida tinglash va gapirish faoliyatlariga bog‘langan bo‘lib, talabaning nutqiy kompetensiyasini baholash hamda ularni o‘z fikrini ravon ifodalashga undashga qaratilgan. Shunday qilib, “Ikki qismli kundalik” uslubi orqali matndan keyingi bosqichda ijodiy tahlil, fikr almashish, o‘z pozitsiyasini ifodalash va muloqotga kirishish ko‘nikmalari samarali rivojlanadi. Uslub interfaol o‘qitishning samarali vositasi sifatida til o‘rgatish amaliyotiga muvaffaqiyatli joriy etilishi mumkin.

